

# IQTISODIY TIZIMLAR VA ULARNING MODELLARI

Iskandarov Bekzod Abdijalilovich

SamISI, "Iqtisodiyot nazariyasi"

kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jahon amaliyotida iqtisodiyot nazariyasini o'rganish, iqtisodiyot tizimlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil etish, iqtisodiy tizimlar va ularning modellari muallif tomonidan o'rganilgan hamda fikrmulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy tizimlar, klassik va neoklassik, iqtisodiy sektor, iqtisodiy tizim modellari.

## ECONOMIC SYSTEMS AND THEIR MODELS

Iskandarov Bekzod Abdizhalilovich

senior teacher of department

"Economic theory", SamIES

**Abstract:** This article examines the theory of economics in world practice, analyzes the stages of development of economic systems, economic systems and their models are studied by the author, and comments are presented.

**Key words:** economic theory, economic systems, classical and neoclassical, economic sector, economic system models.

Insoniyat tarixi – bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning sodda - bir quyi bosqichidan keyingi, tarixiy taraqqiyotning yuqori bosqichiga bosqichma-bosqich o'tishi tarixidir. Ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlari uchun maxsus iqtisodiy tizimlar mos keladi. Kishilik jamiyatining rivojlanish bosqichlarini va har bir bosqichga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlarning umumiy xususiyatlarini o'rganish iqtisodiy jarayonlar va ularning rivojlanish sabablarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini tushunishda turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning asosiyлари: o‘zgaruvchan iqtisodiy tizimlar nuqtai nazaridan: formatsion, sivilizatsion(taraqqiyot), texnologik yondashuvlardir.

Formatsion yondoshuvni idrok etish – bu ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini bilishni insoniyat tarixini ishlab chiqarish usullari yoki ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga bo‘lishdan kelib chiqadi va ular quyidagilarga bo‘linadi:

- ibtidoiy jamoa;
- quldarlik;
- feodal,
- kapitalistik;
- sotsialistik.

**Texnologik yondashuv** mehnat vositalari, materiallar, texnologiyalar, energiya, axborot va ishlab chiqarishni muvofiq tashkil etishning jamlanmasidan kelib chiqadi.

Ishlab chiqarishning bir texnologik usulidan ikkinchisiga o‘tishi insoniyat taraqqiyotining uzoq tarixiy bosqichlari oralig‘ida sodir bo‘ladigan ilmiy-texnik taraqqiyoti natijasida mehnat vositalari va qurollarining o‘zgarishi bilan belgilanadi.

Texnologik ishlab chiqarish usullarining uch bosqichi mavjud bo‘lib, ular - oddiy kooperatsiya, manufaktura va mashinali ishlab chiqarishdir. **Oddiy kooperatsiya** – bir xil turdagи ishni bajaradigan ishchilar birlashmasining eng oddiy shakli bo‘lib, ular ma’lum bir tartib asosida birqalikda ishlaydigan odamlar guruhidir. Manufaktura – bu jamiyat a’zolarining mehnat taqsimotiga asoslangan, mashinalarsiz ishlab chiqarish hamkorligidir. Shu bilan birga, bu turdagи ishlab chiqarish, kooperatsiyada bo‘lgani kabi, qo‘l mehnati va qo‘l mehnatiga asoslangan qurollarga tayanadi. Yirik mashinali ishlab chiqarish

(XVIII asr oxiri) mashinalarning funksiyalari bilan belgilanadigan mehnat taqsimotiga asoslangan kooperatsiya bo‘lgan.

**Sivilizatsiya davri.** Ko‘pgina olimlar, masalan, D.Gelbrayt, V.Rostou va boshqalar jamiyat taraqqiyotini o‘rganishni, uni fan, texnika, texnika va axborot tizimidagi o‘zgarishlarga qarab 3 bosqichga bo‘lishni tavsiya etadilar: sanoatdan oldingi jamiyat, sanoat jamiyati, postindustrial yoki axborot jamiyati.

Industriyallashgan davrdan oldingi davrning belgilariga:

- a. natural xo‘jalikning hukmronligi;
- b. aholining asosiy qismining qishloq xo‘jaligida bandligi;
- c. qo‘l mehnatining ustunligi;
- d. dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq o‘rtasida sezilarsiz mehnat taqsimotining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Jamiyat taraqqiyotining ikkinchi bosqichi – **industrial jamiyatining** asosiy belgilariga:

- A. mexanik ishlab chiqarish;
- B. sanoatni fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda rivojlanishi, undagi ishchi xodimlar sonining ortishi;
- C. shahar aholisining o‘sishi va boshqalar.

Rivojlanishning uchinchi bosqichi – **postindustrial jamiyat** bo‘lib, u quyidagilar bilan farqlanadi:

- a. xizmat ko‘rsatish sohasining yuqori rivojlanishiga ushbu sohaga ishchi kuchining salmoqli qismining (60-70%) jalb qilinganligi;
- b. fan va texnika yutuqlarini jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirilishi, ilmiy tadqiqotchilar va yuqori malakali mutaxassislar rolining ko‘payishi;
- c. iqtisodiyotning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishi;

d. tovarlar va xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir etmaydigan, barcha turdag'i resurslarni tejash imkonini beruvchi zamonaviy turdag'i texnika va texnologiyalardan foydalanishi kabilar.

Texnik taraqqiyotining barcha bosqichlari (oddiy kooperatsiya, manufakturna, mashinali ishlab chiqarish) oxirgi 250-300 yilga to'g'ri keladi, ya'ni, tovar xo'jaligining rivojlanish davriga teng keladi. Bu esa, ko'pgina iqtisodchilarning jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rghanishni boshlashiga sabab bo'ldi.

Ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini tushunish va ularni davrlashtirishga bo'lgan barcha yondashuvlar orasida eng keng tarqalgani - iqtisodiy tizimlar nuqtai nazaridan yondashuv edi.

Iqtisodiy tizim ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishning iqtisodiy jarayonlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari, mulkiy munosabatlar va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilishning iqtisodiy mexanizmidir.

Iqtisodiyot nazariysida iqtisodiy tizimlar iqtisodiy tizimning maqsadlariga, ishlab chiqarish vositalariga egalik shakllariga ko'ra, xo'jalik yuritish shakllari bo'yicha, iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari kabi mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Neoklassik yondashuv vakillari iqtisodiy tizimlarning quyidagi modellarini ajratadilar: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan yoki rejali iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti (3.1-rasm).



1 - rasm. Iqtisodiy tizimlar modellari.

An'anaviy iqtisodiyot avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analarga asoslanadi. Bu an'analar qanday tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni, kim uchun va qanday ishlab chiqarilishini belgilaydi. Tovarlar ro'yxati, ishlab chiqarish texnologiyasi va uning taqsimoti ma'lum bir mamlakatning odatlariga asoslanadi. Jamiyat a'zolarining iqtisodiy o'rni merosiy va qabilaviy aloqadorligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotning bu turi bugungi kunga qadar texnologik taraqqiyot katta qiyinchiliklar bilan kirib kelayotgan ayrim rivojlanmagan mamlakatlarda saqlanib qolgan, chunki u, odatda, ushbu mamlakatlarda o'rnatilgan urf-odat va an'analarga zid keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mc Connell, Bruc. Economics. 19<sup>th</sup> edition. McGraw-hill/Irvin, USA, 2014
2. N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7<sup>th</sup> edition. Amazon, USA 2014.
3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19<sup>th</sup> edition. McCraw- Hill Companies. USA. 2009
4. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media” 2017. - 783 – bet
5. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod- Moliya” 2014.-480 – bet